



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**Fan:** Oliy matematika

**Mavzu:** Xosmas integrallar



# ***REJA:***

1. XOSMAS INTEGRAL.
2. YAQINLASHUVCHI VA UZOQLASHUVCHI INTEGRALLAR.
3. XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI.

# ***XOSMAS INTEGRAL***

1.CHEGARALARI CHEKSIZ BO'LGAN INTEGRALLAR  $f(x)$  FUNKSIYA  $x$ (NING)  $a \leq x < \infty$  ORALIQDAGI BARCHA QIYMATLARIDA ANIQLANGAN VA UZLUKSIZ FUNKSIYA BO'LSIN. USHBU

$$I(b) = \int_a^b f(x) dx$$

INTEGRALNI QARAYLIK. BU INTEGRAL HAR QANDAY  $b > a$  UCHUN MA'NOGA EGA.  $b$  O'ZGARGANDA INTEGRAL HAM O'ZGARADI. BU INTEGRAL  $b$  NING UZLUKSIZ FUNKSIYASIDIR.

# ***XOSMAS INTEGRAL***

***TA'RIF.*** AGAR CHEKLI LIMIT  $\lim_{b \rightarrow +\infty} \int_a^b f(x) dx$

MAVJUD BO'LSA, BU LIMIT  $F(x)$  FUNKSIYANING  $[A, +\infty]$  INTERVALDAGI ***XOSMAS INTEGRALI*** DEYILADI VA

$$\int_a^{+\infty} f(x) dx$$

SIMVOL BILAN BELGILANADI.

# YAQINLASHUVCHI VA UZOQLASHUVCHI INTEGRALLAR

DEMAK, TA'RIFGA KO'RA

$$\int_a^{+\infty} f(x) dx = \lim_{b \rightarrow +\infty} \int_a^b f(x) dx$$

BU HOLDA  $\int_a^{+\infty} f(x) dx$  XOSMAS INTEGRAL MAVJUD YOKI

*YAQINLASHUVCHI* DEYILADI.

AGARDA  $b \rightarrow +\infty$  DA  $\int_a^{+\infty} f(x) dx$  NING CHEKLI

LIMITI MAVJUD BO'LMASA, U HOLDA  $\int_a^{+\infty} f(x) dx$

XOSMAS INTEGRAL MAVJUD EMAS YOKI *UZOQLASHUVCHI* DEYILADI.

# XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI

KO'P HOLLARDA BERILGAN INTEGRALNING YAQINLASHUVCHI YOKI UZOQLASHUVCHI EKANINI BILISH UNING QIYMATINI BAHOLASH YETARLI BO'LADI. BUNING UCHUN QUYIDAGI TEOREMALAR FOYDALI BO'LISHI MUMKIN.

1 – T E O R E M A. AGAR BARCHA  $X(X \geq A)$  LAR UCHUN  $0 \leq F(X) \leq \Phi(X)$  TENGSIZLIK BAJARILSA VA  $\int_a^{+\infty} F(x)$  YAQINLASHUVCHI BO'LSA, U HOLDA  $\int_a^{+\infty} \Phi(x)$  HAM YAQINLASHUVCHI BO'LADI, BUNDA

$$\int_a^{+\infty} F(x) dx \leq \int_a^{+\infty} \Phi(x) dx$$

# ***XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI***

2 – T E O R E M A. AGAR BARCHA  $X(X \geq A)$  LAR UCHUN  
 $0 \leq \Phi(X) \leq F(X)$  TENGSIZLIK BAJARILSA VA  $\int_a^{+\infty} f(x) dx$   
UZOQLASHUVCHI BO'LSA, U HOLDA  
 $\int_a^{+\infty} \varphi(x) dx$  HAM UZOQLASHUVCHI BO'LADI.

3 – T E O R E M A. AGAR  $\int_a^{+\infty} |f(x)| dx$  INTEGRAL

YAQINLASHUVCHI BO'LSA,  
YAQINLASHUVCHI BO'LADI.  $\int_a^{+\infty} f(x) dx$  INTEGRAL HAM

# ***XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI***

2. UZLUKLI FUNKSIYANING INTEGRALI.  $F(x)$  FUNKSIYA  $A \leq x < C$  BO'LGANDA ANIQLANGAN VA UZLUKSIZ BO'LSIN,  $x=C$  BO'LGANDA ESA YO ANIQLANMAGAN, YOKI UZILISHGA DUCHOR BO'LSIN. BU HOLDA  $\int_a^c f(x)$  INTEGRALNI INTEGRAL YIG'INDINING LIMITI DEB QARASH MUMKIN EMAS, CHUNKI  $F(x)$  FUNKSIYA  $[A, C]$  KESMADA UZLUKSIZ EMAS VA SHUNING UCHUN BU LIMIT MAVJUD BO'LMASLIGI HAM MUMKIN.

# *XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI*

C NUQTADA UZILISHGA EGA BO'LGAN  $F(x)$  FUNKSIYANING  
 $\int_a^c f(x)dx$  INTEGRALI QUYIDAGICHA ANIQLANADI:

$$\int_a^c f(x)dx = \lim_{b \rightarrow c-0} \int_a^b f(x)dx$$

AGAR O'NG TOMONDA TURGAN LIMIT MAVJUD BO'LSA, U HOLDA  
INTEGRAL *YAQINLASHUVCHI XOSMAS INTEGRAL* DEYILADI, AKS  
HOLDA INTEGRAL *UZOQLASHUVCHI* DEYILADI.

# ***XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI***

***TEOREMA. AGAR  $F(x)$  VA  $\Phi(x)$  FUNKSIYALAR  $[a, c]$  KESMANING  $c$  NUQTASIDA UZLUKLI BO'LSA VA BU KESMANING BACHA NUQTALARIDA***

$$\Phi(x) \geq F(x) \geq 0$$

TENGSIKLIK BAJARILIB,

$$\int_a^c \Phi(x) dx$$

YAQINLASHUVCHI BO'LSA, U HOLDA

$$\int_a^c F(x) dx$$

HAM YAQINLASHUVCHI BO'LADI.

# ***XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI***

***TEOREMA. AGAR  $F(x)$  VA  $\Phi(x)$  FUNKSIYALAR  $[a, c]$  KESMANING  $c$  NUQTASIDA UZILUVCHI BO'LSA VA BU KESMANING BACHA NUQTALARIDA***

***TENGSIZLIK BAJARILIB,*** 
$$F(x) \geq \Phi(x) \geq 0$$
$$\int_a^c \Phi(x) dx$$
***UZOQLASHUVCHI BO'LSA, U HOLDA***

$$\int_a^c F(x) dx$$

***HAM UZOQLASHUVCHI BO'LADI.***

# ***XOSMAS INTEGRAL TEOREMALARI***

***TEOREMA.** AGAR  $f(x)$  FUNKSIYA  $[a, c]$  KESMADA ISHORA  
O'ZGARTIRUVCHI BO'LIB, FAQAT  $c$  NUQTADAGINA UZILUVCHI  
BO'LSA VA BU FUNKSIYANING ABSOLYUT QIYMATIDAN OLINGAN*

*$\int_a^c [f(x)] dx$  XOSMAS INTEGRAL YAQINLASHUVCHI BO'LSA, U  
 $a$ HOLDA BU FUNKSIYANING O'ZIDAN OLINGAN*

*$\int_a^c f(x) dx$  INTEGRAL HAM YAQINLASHUVCHI  
 $a$ BO'LADI*

# ADABIYOTLAR:

1. Азларов Т., Мансуров Х., Математик анализ, Т.: «Ўқитувчи». 1 т: 1994 й. 315 б.
2. Азларов Т., Мансуров Х., Математик анализ, Т.: «Ўқитувчи». 2 т: 1995 й. 336 б.
3. Аюпов Ш.А., Бердиқулов М.А., Функциялар назарияси, Т.: “ЎАЖБНТ” маркази, 2004 й. 148 б.
4. Turgunbayev R., Matematik analiz. 2-qism, T.TDPU, 2008 y.
5. Jo'raev T. va boshqalar, Oliy matematika asoslari. 2-q., T.: «O'zbekiston». 1999
6. Саъдуллаев А. ва бошқ. Математик анализ курсидан мисол ва масалалар тўплами, III қисм. Т.: «Ўзбекистон», 2000 й., 400 б.
8. [www.ziyonet.uz/](http://www.ziyonet.uz/)
9. [www.pedagog.uz/](http://www.pedagog.uz/)



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!**



 + 998 71 237  
0986